MAKTABDA INGLIZ TILINI O‘QITISHDA RAQAMLI VOSITALAR VA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Topiljonova Madina Latibjon qizi
Qibray tumani 23-maktab
ingliz tili fani o‘qituvchisi
topiljonovamadina@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.23036539

Annotatsiya. Maqolada maktabda ingliz tilini o‘qitishda raqamli vositalar va sun'iy intellektdan foydalanishning imkoniyatlari hamda amaliyotda uchrayotgan qiyinchiliklar ko‘rib chiqiladi. Asosiy e'tibor o‘qituvchilarning tayyorgarligi, texnik jihozlar, o‘quv materiallarining dasturga mosligi va o‘quvchilarning sun'iy intellektdan noto‘g‘ri foydalanishiga qaratilgan. Muammolarni hal qilish bo‘yicha amaliy takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, raqamli vositalar, ingliz tili, maktab, blended learning, CEFR.

Kirish

Hozir ta'limda islohotlar ko‘p, ingliz tili ham bundan chetda emas. Bir necha yil oldin ingliz tili darsi deganda asosan darslik, doska va o‘qituvchining o‘z ovozi tushunilardi. Bugun esa deyarli har bir o‘quvchining cho‘ntagida telefon bor, telefonda esa ingliz tilini o‘rgatadigan o‘nlab ilovalar va sun'iy intellekt dasturlari mavjud. Raqamli ta'limni rivojlantirish bo‘yicha ishlar hali ham davom etmoqda [1] va sun'iy intellekt vositalari esa o‘quvchiga o'z sur'atida o‘rganish, tez fikr-mulohaza olish va til muhitiga yaqinroq bo‘lish imkonini beradi [2]. Lekin amalda hamma narsa u qadar silliq emas. Maktablarda o‘quvchilar soni ko‘p. Har bir maktab kerakli, zamonaviy jihozlar bilan ta’minlanmangan. Elektron doska, televizor, projector va kompyuterlar har bir maktablarda bor, ammo ular o‘quvchilarning soniga nisbatan kam. Mazkur maqolada shu qiyinchiliklarni ko'rib chiqib, ularni hal qilishning maktab sharoitiga mos yo'llarini taklif qilmoqchiman.

Asosiy muammolar

Eng avvalo, texnik jihozlar masalasi. Ko‘p maktabda internet sekin ishlaydi, kompyuter yoki planshet esa hamma o‘quvchiga yetmaydi. Bitta sinfda 30 nafar bola bo‘lsa, ularning hammasini bir vaqtda ilovada ishlatish deyarli mumkin emas. Ba’zan bir dars vaqtining yarmi ulanishni kutish bilan o‘tib ketadi.

Ikkinchi muammo o‘qituvchilarning o‘zi bilan bog‘liq. Buni aytish oson emas, lekin haqiqat shu: ko‘p o‘qituvchi sun'iy intellektni darsga qanday kiritishni bilmaydi. Kimdir qo‘rqadi, kimdir "bu men uchun emas" deb o‘ylaydi, kimdir urinib ko‘radi-yu, natija chiqmagach to‘xtaydi. Metodik qo‘llanmalar ham yetarli emas, o‘qituvchi ko‘pincha o‘zi izlanib, o‘zi sinab ko‘rishga majbur [3]. Termizdagi maktab-internat o‘qituvchisi ham o‘z maqolasida raqamli kompetensiyani oshirish zarurligini alohida ta'kidlagan [3].

Uchinchidan, raqamli materiallar maktab dasturiga har doim ham mos kelavermaydi. Internetda mashqlar juda ko‘p, lekin ularning qaysi biri 7-sinf o'quvchisining darajasiga to‘g‘ri keladi, qaysi biri CEFR bo‘yicha A2 yoki B1 talabiga javob beradi, buni aniqlash o‘qituvchining zimmasida qoladi [4]. Ba'zi ilovalar esa o‘quvchiga juda oson yoki aksincha, juda qiyin topshiriq berib, qiziqishni so‘ndiradi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

To‘rtinchi muammo o‘quvchilarning ilovalarga munosabati. Bolalar telefonni ko‘proq o‘yin va video uchun ishlatadi. O‘quv ilovasini ochsa ham, ball yig‘ish yoki "streak"ni saqlab qolish uchun tez-tez bosib chiqadi, aslida o‘rganish ikkinchi darajaga tushib qoladi.

Va nihoyat, eng jiddiy xavflardan biri. O‘quvchi uy vazifasini o‘zi bajarish o‘rniga sun'iy intellektdan tayyor javob olib, ko‘chirib qo‘yadi. Insho ham, tarjima ham, grammatik mashq ham tayyor. Natijada bola mustaqil fikrlashni va xato qilib o‘rganishni to‘xtatadi, akademik halollik esa tobora unutilib boradi [5], [6]. UNESCO ham ta'limda generativ sun'iy intellektdan foydalanishda insonning nazorati va aniq qoidalar zarurligini alohida ta'kidlaydi [6].

Yechimlar

Birinchi navbatda o‘qituvchilar bilan ishlash kerak. Malaka oshirish kurslari faqat nazariy ma'ruzadan iborat bo‘lsa, foydasi kam. O‘qituvchi kursdan chiqqach, ertasi kuni darsda qo‘llay oladigan narsani o‘rganishi kerak. Shu bois kasbiy rivojlanish soatlarini raqamli platformalar va interaktiv usullar asosida tashkil etish, o‘qituvchilarning bir-biridan o‘rganishi uchun maydon yaratish samaraliroq bo‘ladi [7]. Bir o‘qituvchi yaxshi ishlagan usulni ikkinchisi o‘z darsida sinab ko‘rsa, natija tezroq ko‘rinadi.

Ikkinchi taklif darsni aralash (blended) usulda qurish. Jihoz yetishmaydigan sharoitda hamma narsani ilovaga yuklab qo‘yish to‘g‘ri emas. Sinfda o‘quvchilar juft bo‘lib gaplashadi, yozadi, o‘qituvchi bilan ishlaydi. Uyda esa ilova yoki platforma orqali so‘z va grammatikani mustahkamlaydi [8], [9]. Bunda sinfdagi jonli muloqot saqlanadi, raqamli vosita esa yordamchi rolini bajaradi.

Uchinchidan, nutq ko‘nikmasini rivojlantirishda chatbot va talaffuzni tekshiradigan dasturlardan foydalanish mumkin. Ingliz tilida gaplashadigan hamsuhbat topish har doim oson emas, ayniqsa qishloq maktabida. Sun'iy intellekt suhbatdosh bo‘lsa, o‘quvchi xato qilishdan uyalmay mashq qilishi mumkin [9]. Faqat vositani o‘quvchining darajasiga moslab tanlash kerak, aks holda foydasidan ko‘ra zarari ko‘proq bo‘ladi [1].

To‘rtinchidan, o‘quvchilarga sun'iy intellektdan to‘g‘ri foydalanishni o‘rgatish zarur. Bu vosita yordamchi, o‘rnini bosuvchi emas. Masalan, o‘quvchi insho yozib bo‘lgach, uni sun'iy intellekt bilan tekshirishi, xatolarini ko‘rib chiqishi mumkin, lekin inshoni boshidan oxirigacha unga yozdirmasligi kerak. Buni ochiq aytib, sinfda qoidalar belgilash lozim. Bunda o‘qituvchi nazorati hal qiluvchi rol o‘ynaydi [5], [6].

Beshinchidan, natijani kuzatib borish kerak. Yangi usul qo‘llandi, lekin u haqiqatan ishlayaptimi? Buni bilish uchun vaqti-vaqti bilan o‘quvchilarning natijasini CEFR mezonlari asosida solishtirib turish, ishlamayotgan narsani o‘zgartirish kerak [10], [11].

Xulosa

Oliy ta'lim muassasalarida o‘tkazilgan tadqiqotlarda raqamli muhitda o‘qigan talabalarning so‘z boyligi, tinglab tushunishi va yozma nutqida yaxshilanish kuzatilgan [10], [11]. Bu natijalarni maktabga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirib bo‘lmaydi, chunki sharoit, yosh va jihoz boshqacha. Ammo asosiy g‘oyani moslab qo‘llash mumkin. Buning uchun uchta narsa birga bo‘lishi kerak: yetarli texnik ta'minot, tayyorgarligi yaxshi o‘qituvchi va aniq metodik yondashuv. Bulardan bittasi yetishmasa, raqamli vositalar darsni yaxshilamaydi, balki qo‘shimcha muammo tug‘diradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Baxtiyorova, D., & Ibrohimova, F. (2025). Sun'iy intellektning ingliz tili ko'nikmalarini o'qitishdagi samaradorligini oshirish mexanizmlari. Akademik tadqiqotlar zamonaviy fanda, 4(2), 101–103. https://inlibrary.uz/index.php/arims/article/view/62141
2. Karimova, B. A. (2026). Ingliz tilini o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalari: lingvodidaktik va kognitiv yondashuv. Zenodo. https://doi.org/10.5281/zenodo.20478615

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

3. Abdug'aniyeva, N. H. (2025). Sun'iy intellekt texnologiyalarining ingliz tili o'qitish jarayoniga integratsiyasi: nazariy va amaliy yondashuvlar. Zenodo. https://zenodo.org/records/17615167
4. Council of Europe. (2020). Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment – Companion Volume. Strasbourg: Council of Europe Publishing.
5. Ravshanov, M. B. (2026). Sun'iy intellekt texnologiyalarining ingliz tilida o'qish ko'nikmasini rivojlantirishdagi roli. Ilm-fan xabarnomasi, 15(02). https://doi.org/10.5281/zenodo.22864331
6. UNESCO. (2023). Guidance for Generative AI in Education and Research. Paris: UNESCO.
7. Tirkasheva, A. T. (2026). Ingliz tili o'qitish jarayonida kasbiy rivojlanish soatini samarali tashkil etishda raqamli va interaktiv texnologiyalardan foydalanish. Zenodo. https://zenodo.org/records/20056018
8. Horn, M. B., & Staker, H. (2015). Blended: Using Disruptive Innovation to Improve Schools. San Francisco: Jossey-Bass.
9. Ibragimova, D. I. (2026). Raqamli va sun'iy intellekt texnologiyalari integratsiyasi asosida ingliz tilini o'qitishda kasbiy kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning innovatsion yondashuvlari. Zenodo. https://zenodo.org/records/19634286
10. Kasimova, Y. M., & Hasanboyeva, E. D. (2026). Raqamli texnologiyalar yordamida ingliz tilini o'qitish metodlari. Zenodo. https://zenodo.org/records/21196577
11. Toshmatova, M. Q. (2026). Ingliz tilini o'qitishda raqamli texnologiyalar va interaktiv vositalardan foydalanish. Zenodo. https://zenodo.org/records/21219536

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.